

# **Surxondaryodagi 965 ta mакtabda so'ngi qo'ng'iroq jarangladi**



Surxondaryodagi 965 ta mакtabda so'ngi qo'ng'iroq jarangladi

Bugun 25 may – yurtimizdagи barcha umumta'lim maktablari bitiruvchilari uchun "So'nggi qo'ng'iroq" jarang sochdi. Xususan, viloyatimizdagи 965 ta umumta'lim maktablarida so'nggi qo'ng'iroq sadolari yangramoqda. Joriy yilda mazkur ilm dargohlarining 11-sinfini 32 ming 886 nafar o'quvchi tamomlayapti.

Surxondaryo viloyati hokimi Ulug'bek Qosimov Termiz shahridagi 26-sonli mакtabda "So'ngi qo'ng'iroq" tadbirida ishtirok etib, Prezidentimizning mamlakatimiz maktablari bitiruvchilariga yo'llagan bayram tabrigini o'qib eshittirdi. Bitiruvchilarni mакtabni muvaffaqiyatli yakunlayotganliklari bilan tabriklab, yoshlar mamlakatiga aylanib borayotgan O'zbekistonimizda yaratilayotgan imkoniyatlarni qadrlab, ulardan samarali foydalanishga chaqirdi va bitiruvchi yoshlarga katta hayotda o'z o'rinalarini topishda oq yo'l tiladi.

Viloyatdagи barcha umumta'lim maktablarida bitiruvchi yoshlarni katta hayotga kuzatish tadbirlari katta shodiyonalar bilan nishonlanmoqda va tadbirlarda viloyat, shahar va tumanlar mutasaddilari ishtirok etishib, Davlatimiz rahbarining mamlakatimiz maktablari bitiruvchilariga yo'llagan bayram tabrigini yetkazishmoqda.











